

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.02 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

ABDURASHIDOV SHAXRIYOR MASHRABJON O‘G‘LI

**KON ISHLARI VA UYUMLAB ISHQORLASHNING TEXNOGEN
HOSILALARINI, QAZIB OLISH TEXNOLOGIYASI VA TEXNOLOGIK
SXEMALARINI ASOSLASH**

04.00.10 – Geotexnologiya (ochiq, yer osti va qurilish)

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
of technical sciences**

Abdurashidov Shaxriyor Mashrabjon o‘g‘li

Кон ишлари ва уюмлаб ишқорлашнинг техноген hosilalarini, qazib olish
texnologiyasi va texnologik sxemalarini asoslash.....3

Абдурашидов Шахриёр Машрабжон угли

Обоснование технологии и технологических схем отработки техногенных
образований горных работ и кучного выщелачивания.....21

Abdurashidov Shakhriyor Mashrabjon ugli

Justification of technology and technological schemes for the development of
technogenic formations from mining operations and heap leaching.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....42

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

ABDURASHIDOV SHAXRIYOR MASHRABJON O‘G‘LI

**KON ISHLARI VA UYUMLAB ISHQORLASHNING TEXNOGEN
HOSILALARINI, QAZIB OLISH TEXNOLOGIYASI VA TEXNOLOGIK
SXEMALARINI ASOSLASH**

04.00.10 – Geotexnologiya (ochiq, yer osti va qurilish)

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T2625 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ndki.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtashev Alisher Baxodirovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Zairov Sherzod Sharipovich
texnika fanlari doktori, professor

Ochilov Shuhratulla Atoevich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:


Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti


Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17/04.06.2021.T.06.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shox ko‘chasi, 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti majlislar zali. Tel.: (79) 223-04-40; faks: (79) 223-49-66; e-mail: info@nsmtu.uz, nsmi@gmail.com.


Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (178 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shox ko‘chasi, 76v-uy. Tel.: (79) 223-56-90; faks: (79) 223-00-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «14» dekabr kuni tarqatilgan.
(2024 yil «14» dekabrda 158 raqamli reestr bayonnomasi).




I.T. Mislibayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor


R.U. Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor


N.A. Abduazizov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda konlardan qazib olingan, qayta ishlangan va uyumlab ishqorlangan foydali qazilma tarkibi past bo'lgan mineral xomashyo ko'rinishidagi chiqindilarining katta hajmlari mavjud. Turli xil ag'darmalarda saqlanadigan ushbu chiqindilarning bir qismi allaqachon to'laqonli texnogen konlar deb hisoblanishi mumkin. Bunday chiqindilarning hajmi yildan-yilga sezilarli darajada ko'payib bormoqda, bu esa hozirda ularni qayta ishlashga jalb qilish uchun dolzarbdir. Texnogen konlarni o'zlashtirish bir vaqtning o'zida ikkita global maqsadga erishishni ta'minlaydi: birinchidan, qo'shimcha mineral xomashyoning arzon manbasini olish, ikkinchidan, to'plangan sanoat chiqindilaridan foydalanish atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga yordam beradi va uni hozirda yechish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda chiqindixonalarni qazib olishning iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyalari va texnologik sxemalarini ishlab chiqish, qazib olinadigan ma'dan massasining sifatini oshirishni ta'minlash, ma'lum bir sifatdagi ma'danlarni tanlab qazib olish shuningdek, optimal parametrlarni aniqlash orqali yangi texnologiyalar va texnologik sxemalarni joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada texnogen konlarni qazib olishga alohida e'tibor qaratilib, qayta ishlash korxonalarida qimmatbaho komponentlarni qayta boyitish va ajratib olish uchun ularni qazib olish texnologiyasi va texnologik sxemalarini yaratishning istiqbolli yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda konlarni ochiq usulda qazib olishda buldozerlar, yuklagichlar va avtomobil transportidan foydalangan holda maqbul texnologik sxemalar va ularning parametrlarini ishlab chiqish, konlarni mexanizatsiya vositalari bilan kompleks qazib olishning samarali texnologiyasini yaratish bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida¹ «ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga energiya va resurs tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish...» kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, uyumlab ishqorlangan texnogen hosilalardan qo'shimcha mineral xomashyo olish hamda ularni qazib olish texnologiyasi va texnologik sxemalarini ishlab chiqish konchilik sanoatining dolzarb ilmiy va amaliy vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida» gi 2015 yil 4 martdagi PF-4707-son «Ishlab chiqarishni strukturaviy qayta tuzish modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni ta'minlash bo'yicha 2015-2019 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida» gi Farmonlari va 2019 yil 17 yanvardagi PQ-4124-son «Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori hamda mazkur

¹O'zbekiston Respublikai Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. «Yer to'g'risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Texnogen hosilalarni shakllantirish texnologiyasi va qazib olish samaradorligini oshirish nazariyasi va amaliyotining asosini takomillashtirishga B.N. Laskorin, L.A. Birskiy, N.V. Melnikov, M.I. Agoshkov, K.N. Trubeskoy, V.N. Umanes, M.B. Nikitin, Z.A. Terpogosov, V.G. Shitarev, D.R. Kaplunov, S.E. Gavrishev, A.M. Galperin, O.E. Gorlova, A.G. Talalay, I.V. Shadrinova, S.I. Fomin, G.A. Xolodnyakov, S.I. Dabija, I.M. Izoytko, Ye.I. Shenderovich, Q.S. Sanaqulov, A.S. Xasanov, B.R. Raimjonov, R.Sh. Naimova, C. Newman, T. Assawincharoenkij, C. Hauzenberger, C. Sutthirat, A.M. Bantshi, P. Makuvise, D.L. Campbell, D.V. Fitterman va boshqa olimlar salmoqli hissa qo'shishgan. Ular texnogen hosilalarni qazib olish texnologiyasi va texnologik sxemalarini takomillashtirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Tegishli adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda ma'dan-tog' jinsli omborlar va uyumlab ishqorlash chiqindilarini qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalarining umumiy nazariyasi mavjud emasligi aniqlandi. Oldingi barcha tadqiqotlarda chiqindixonalarni qazib olish texnologiyasi va texnologik sxemalarini takomillashtirishga alohida hissa qo'shilgan, ammo ma'dan-tog' jinsli omborlar va uyumlab ishqorlash chiqindilarida foydali komponentning turli parametrlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda qazib olish texnologiyasi va texnologik sxemalarini taqqoslanmagan. Shu munosabat bilan yer yuzasidagi texnogen konlarning tarkiblarini va turlarini o'rganish, hamda ma'dan-tog' jinsli va uyumlab ishqorlangan texnogen hosilalarni qazib olish texnologiyalarini ishlab chiqish va bu yo'nalishda keyingi tadqiqotlarni davom ettirishni talab qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №06/2023-307-son «NKMK AJning texnogen chiqindilari tarkibidan nodir va noyob metallarni ajratib olishning kompleks texnologiyasini yaratish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kon ishlari va uyumlab ishqorlashning texnogen hosilalarini qazib olishda iqtisodiy tejamkor texnologiyani va texnologik sxemani asoslash va ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

uyumlab ishqorlash uchun ishlatilgan shtabel chiqindilarini qayta ishlashga jalb qilish imkoniyatlari bo'yicha tadqiqotlar tahlili;

yer yuzadagi texnogen konlarni tarkibiy turlanishini asoslash, shuningdek ma'dan-tog' jinsli texnogen hosilalarni qazib olish texnologiyasi va texnologik sxemalarini asoslash va ishlab chiqish;

ma'dan-tog' jinsli texnogen hosilalarni qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalarining unumdorligini hisoblash metodikasini ishlab chiqish;

«NKMK» AJning uyumlab ishqorlangan texnogen hosilalarini qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalarini asoslash va ishlab chiqish;

uyumlab ishqorlangan shtabelning butun balandligi bo'yicha qazib olishda buldozerlar yordamida xavfsiz kesish burchagini, kon-kapital ishlarining yuzasi va hajmini aniqlash uchun grafoanalitik usulni ishlab chiqish;

«NKMK» AJning uyumlab ishqorlangan chiqindilarini qazib olish uchun ishlab chiqilgan texnologiyalar va texnologik sxemalarni texnik-iqtisodiy baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida ma'dan tog'-jinsli texnogen hosilalar va «OUEO'S» konining uyumlab ishqorlangan shtabeli olingan.

Tadqiqotning predmetini ma'dan-tog' jinsli texnogen hosilalarni va uyumlab ishqorlangan shtabelni qazib olish texnologiyasi va texnologik sxemalari tashkil etagan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida fundamental tadqiqot usullari to'plami, jahon amaliyotini tahlil qilish, namunaviy va mass-spektrometrik tahlil qilish, muhandislik hisoblash ishlarining grafoanalitik usuli, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda kompyuter dasturlash usuli, shuningdek matematik statistika va tadqiqot natijalarini korrelyatsion tahlillari kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnogen hosilalarni qazib olishda texnologiyani va texnologik sxemalarni tanlash uchun asos bo'ladigan texnogen xomashyo turi, sifati va yirikligining asosiy diapazonini hisobga olgan holda yer yuzasidagi texnogen konlarning tarkibiy turlanishi asoslangan;

ma'dan-tog' jinsli texnogen hosilalarni qazib olishning turli variantlarining texnologik sxemalari ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan uskunalarning turi, qazib olish usuli, massivning tavsifi va texnogen xomashyoning xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni tanlab va yalpi qazish uchun qazib olish texnologiyalari asoslangan;

kon massasining hajmi va optimal o'rtacha miqdorini aniqlash uchun hisoblash metodikasining nazariy asoslari asoslangan hamda hisoblash natijalari asosida kon massasining hajmi va optimal o'rtacha miqdori bir vaqtning o'zida bir necha yaruslarni birgalikda qazib olishda va shtabelni butun balandligi bo'yicha qazib olishda erishilishi aniqlangan;

uyumlab ishqorlangan shtabelni qazib olish uchun, kon massasini tanlab qazishni ta'minlaydigan texnologiyalar va texnologik sxemalar ishlab chiqilgan, hamda shtabelni ikki yarusga bo'lib qazib olish uchun yuklagichlar va rotorli ekskavatorni konveyer transporti bilan birgalikda qo'llash orqali metalning optimal o'rtacha miqdoriga erishilishi isbotlangan;

ishlab chiqilgan texnologik sxemalarda, ya'ni balandlik bo'yicha yuqoridan pastga ma'danni surishda samarali masofani ta'minlagan holda shtabelni kesishda buldozerlarning optimal va xavfsiz ishlash burchaklari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

konveyer majmuasini qayta o'rnatish vaqti koeffitsientini hisobga olgan holda, nim pog'onalar bilan ma'dan-tog' jinsli texnogen hosilalarni qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalarining unumdorligini hisoblash metodikasi ishlab chiqilgan;

uyumlab ishqorlangan shtabelni to'liq balandligi bo'yicha va ikki yarusga bo'lib qazib olishda kesishning xavfsiz burchagini aniqlash uchun grafoanalitik usul ishlab chiqilgan;

tanlangan kon ishlarining hajmini bajarish uchun Microsoft Excel dasturini qo'llash orqali ishlab chiqilgan texnologik sxemalarning unumdorligi, foydalanilgan kon uskunalar majmualari, hamda ularning soni hisoblanib iqtisodiy samaradorligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dastlabki ma'lumotlarning taqdim etilganligi va ishonchliligi, tadqiqot natijalarini loyihalash tashkilotlari va konchilik korxonalarini ma'lumotlari bilan solishtirish orqali unumdorligini hisoblash metodikasi va buldozerlar yordamida kon massasini surish masofasi, kon kapital ishlarining yuzasi va hajmi, xavfsiz kesish burchagini aniqlashda grafoanalitik usulning aprobatsiyasidan foydalanish orqali olingan ijobiy natijalar bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ma'dan-tog' jinsli texnogen hosilalarni va uyumlab ishqorlangan chiqindilarning shtabelini qazib olish uchun kon transportlari va qazish uskunalarini qo'lashda ma'dan sifatini tezkor boshqarishni ta'minlaydigan oqilona texnologiya va texnologik sxemalarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan texnologiyalar va texnologik sxemalarning unumdorligini hisoblash metodikasini ishlab chiqilganligi va shtabelni qazib olishda buldozer xavfsiz kesish burchagini, kon massasini surish masofasini, kon-kapital ishlarining yuzasini va hajmini aniqlash uchun grafoanalitik usulni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kon ishlari va uyumlab ishqorlashning texnogen hosilalarini, qazib olish texnologiyasi va texnologik sxemalarini asoslash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ma'dan-tog' jinsli texnogen hosilalarni qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalarining unumdorligini hisoblash metodikasi «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning «OUEO'S» konida joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning 2024-yil 9-sentabrdagi 23/01-01-07/534-son ma'lumotnomasi). Natijada texnogen hosilani nim pog'onalar bilan hamda butun balandligi bo'yicha qazib olishda, konveyer majmuasini qayta o'rnatish vaqtini hisobga oluvchi koeffitsient kiritilgan;

uyumlab ishqorlangan shtabelni to'liq balandligi bo'yicha va ikki yarusga bo'lib qazib olishda kesishning xavfsiz burchagini aniqlash uchun grafoanalitik usuli «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning «OUEO'S» konida joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning 2024-yil 9-sentabrdagi 23/01-01-07/534-son ma'lumotnomasi). Natijada xavfsiz kesish burchagi, kon massasini surish masofasi, kon-kapital ishlarining yuzasi va hajmi aniqlangan;

tarkibiy sinflanishi ishlab chiqilgan va ma'dan omborlarini hamda uyumlab ishqorlangan chiqindilarni tanlab va yalpi qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalari «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning «OUEO'S» konida joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning 2024-yil 9-sentabrdagi 23/01-01-07/534-son ma'lumotnomasi). Natijada shtabelni ikki yarusga bo'lib qazib olish texnologik sxemalarida, ma'dan sifatini tezkor boshqarishga erishilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotlarning natijalari 1 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan respublika nashrlarida 3 ta va xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo'yicha tavsiyalar, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Texnogen konlarning mineral xomashyolarini keyinchalik qayta ishlashga jalb qilish imkoniyati va maqsadga muvofiqligi uchun tahlil qilish va baholash**» deb nomlangan birinchi bobida, texnogen xomashyo (TX) va texnogen kon (TK) tushunchalari aniqlangan. Bu tushunchalardan ishlab chiqarishni rivojlantirishning muayyan bosqichlarida texnologik va iqtisodiy sabablarga ko'ra foydalanilmaydi. Kon chiqindilari (balansdan tashqari ma'dan omborlari, qoplovchi tog' jinslari ag'darmalari, qayta ishlash korxonalarining chiqindilari, metallurgiya zavodlarining shlaklari va loylari) ko'pincha yuqori sanoat qiymatiga ega.

«NKMK» AJ va «OKMK» AJ sharoitida ochiq usulda qazib olish va uyumlab ishqorlashning texnogen hosilalari tahlili o'tkazildi. Hozirgi vaqtda mis rudalarini uzoq muddatli qayta ishlash natijasida «OKMK» AJning chiqindixonalarida 140 million tonnadan ortiq balansdan tashqari ma'dan to'plangan, shuningdek «NKMK» AJning 2,12 milliard tonna texnogen xomashyo to'plangan.

Shuningdek, oltinni uyumda ishqorlash sexi rudnikida konsentratsiyasi 0,6 g/t gacha bo'lgan 400 million tonna miqdoridagi chiqindilar va uyumlab ishqorlangan shtabel chiqindilarini qayta ishlashga jalb qilish imkoniyati asoslandi.

Ma'dan-tog' jinsli balansdan tashqari omborlarni, uyumlab ishqorlangan chiqindilarni va boyitish chiqindilarini, oltin ma'danli texnogen hosilalar sifatida

tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tuzilishi bir jinsli bo'lmaganligini umumiy haqiqatga qaramay, hozirgacha ularning tarkibiy turlanishiga yetarlicha e'tibor berilmagan. Ushbu ishda biz texnogen xomashyoning turi, sifati va yirikligining asosiy diapazonini hisobga olgan holda 1-jadvalda keltirilgan texnogen konning takomillashtirilgan tarkibiy turlanishini asosladik.


1-jadval

Yer yuzasidagi texnogen konning takomillashtirilgan tarkibiy turlanishi


Texnogen konning turlari	Guruhlar	Texnogen xomashyo	Turi va sifati	Texnogen xomashyo yirikligining asosiy diapazoni, mm
Ma'dan-tog' jinsli	Omborlar	Balansdan tashqari ma'danlar	Foydali qazilmalarni ochiq va yer osti usulida qazib olish texnologiyasi bo'yicha maydalash	1-400
		Yo'ldosh ma'danlar		
		Kontakt zonalarining aralashgan ma'danlari		
	Ag'darmalar	Qoyali yoki yarim qoyali qoplovchi jinslar	Ochiq usulda qazib olish texnologiyasi bo'yicha maydalangan	1-800
		Kon lahimini o'tishdagi qoyali yoki yarim qoyali jinslar	Yer osti usulida qazib olish texnologiyasi bo'yicha maydalangan	1-400
		Dengiz jinslari	Ochish ishlari orqali toshlarni qisman maydalash	0.01-200
		G'ovak jinslar	Gruntlarni va g'ovakli cho'kindi jinslarni ochish ishlari	0.1-30
	Aralash	Qoyali, dengiz jinsli yoki boshqa qoplovchi jinslarni birgalikda uymalash	0.1-400	
Chiqindili	Chiqindixona	Namli boyitilgan chiqindi	Gravitatsiya, flotatsiya, magnit separatsiya va boshqalar	0.01-5
		Quruq boyitilgan chiqindi	Jins tanlash, slyuda tanlash va boshqalar.	0.01-30
Toshqol kulli	Toshqol va shlamli ag'darma	Granulalangan toshqollar	Pirometallurgiya texnologik jarayoni chiqindilari	1-30
		Toshqolli qotishma		-
		Metallurgiya shlamlari		0.001-2.0
	Oltintosh-kulli ag'darma	Oltintashqolli aralashma	Qattiq yoqilg'ida ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalarining chiqindilari	0.001-10
Ishqorlangan chiqindilar	Ishqorlangan uyum	Oltin tarkibli	Yirik va mayda dispersli, uyumda ishqorlangan chiqindilar	1-5

Ishlab chiqilgan tarkibiy turlanish ochiq usulda qazishda, qazib olish texnologiyasini, kon transportini va qazish uskunalarini tanlash uchun zarur va yetarli hisoblanadi.

Dissertatsiyaning «Ma'dan-tog' jinsli texnogen konlarni qazib olish texnologik sxemalarini va qazib olish texnologiyalarining unumdorligini hisoblash uslublarini asoslash» deb nomlangan ikkinchi bobida, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ma'dan-tog' jinsli texnogen hosilalarni qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalari ishlab chiqilgan. Birinchi qazib olish texnologiyasi ombor kovjoyini nim pog'onalarga bo'lib qazishni o'z ichiga oladi. Shunday holda, pog'onaning balandligi qazib yuklovchi uskunaning va transport turining o'ziga xos ishchi parametrlariga qarab tanlanadi (1 va 2-rasmlar).




1-rasm. Ombor kovjoyini EKG-15 tipidagi mexanik kurakli ekskavatorlar bilan nimpogʻonalarga boʻlib qazib olish




2-rasm. Ombor kovjoyini CAT 992 tipidagi yuklagichlar, mobil plastinkali taʼminlagichla MPT-2000 yoki MAF-200 bilan birgalikda nimpogʻonalarga boʻlib qazib olish

Kon uskunalariga va transportlariga bogʻliq 4 ta texnologik sxema ishlab chiqilgan.

Ikkinchi qazib olish texnologiyasi balansdan tashqari maʼdan omborlarini qazib olishda texnogen konni balandligi boʻyicha buldozerlar yordamida qiya kesishni, turli xil qazib-yuklash uskunalardan va transportdan foydalanishni oʻz ichiga oladi (3 va 4-rasmlar). Ushbu texnologiya uchun ham 4 ta texnologik sxema ishlab chiqilgan.



3-rasm. CAT-D10 buldozerini qiya kesishi yordamida ombor kovjoyini EKG-15 tipidagi mexanik kurakli ekskavatorlari bilan qazib olish



4-rasm. CAT-D10 buldozerini qiya kesishi yordamida ombor kovjoyini CAT 992 tipidagi yuklagichlar, mobil plastinkali taʼminlagichlar MPT -2000 yoki MAF-200 bilan birgalikda qazib olish

Taklif etilayotgan texnologik sxemalarda buldozerni yuqoridan pastgacha lemexdagi yuk bilan oldinga siljitishda maksimal qiyalik burchagi gorizontalgacha nisbatan 25° dan oshmasligi kerak. Shu bilan buldozerning qiyalikda xavfsiz ishlashiga va kon massasini minimal masofaga surishga erishiladi.

Ishlab chiqilgan texnologik sxemalar asosida qoʻllaniladigan uskunalarning turi, qazib olish usuli, massivning tavsifi va texnogen xomashyoning xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlab va yalpi qazib olish uchun, maʼdan-togʻ

jinsli texnogen hosilalarni qazib olish texnologiyalari asoslangan va 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Ma'dan-tog' jinsli texnogen hosilalarni qazib olish texnologiyalari

TKning turi	Qazib olish usuli	Guruhlar	Qazish va yuklash ishlarini mexanizatsiyalash turi	Qazish usuli	Massivning xususiyatlari va texnogen xomashyoning fizik-
Ma'dan-tog' jinsli	Mexanizatsiyalashgan «quruq»	1	Bir cho'michli to'g'ri kurakli mexanik eskavator, avtomobil transporti	Tanlab	Saqlangan massiv. Namligi 0-15%. Siqilish koeffitsienti $\leq 0,18$ MPa. Deformatsiya moduli ≤ 20 MPa. Siljish koeffitsienti $\geq 0,7$
		2.	Buldozer, bir cho'michli to'g'ri kurakli mexanik eskavator, avtomobil transporti	Yalpi Ba'zi joylarda tanlab	
		3.	To'g'ri kurakli gidravlik ekskavator, avtomobil transporti	Tanlab	
		4.	Buldozer, to'g'ri kurakli gidravlik ekskavator, avtomobil transporti	Yalpi Ba'zi joylarda tanlab	
		5.	Yuklagich, avtomobil transporti	Tanlab	
		6.	Buldozer, yuklagich, avtomobil transporti	Yalpi Ba'zi joylarda tanlab	
		7.	Yuklagich, mobil plastinkali ta'minlagich, o'ziyurar qayta yuklagich va konveyer transporti	Tanlab	
		8.	Buldozer, Yuklagich, mobil plastinkali ta'minlagich, o'ziyurar qayta yuklagich va konveyer transporti	Yalpi Ba'zi joylarda tanlab	

Qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalar texnogen konning parametrlariga, foydali komponentning tarkibiga va x.k. qarab tanlanadi.

Ushbu tadqiqot ishida ma'dan-tog' jinsli texnogen hosilalarni qazishda texnogen konning balandligi bo'yicha qiya kesish va nim pog'onalariga bo'lib qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalarining unumdorligini hisoblash uslubi taklif etildi.

O'tkazilgan hisob-kitoblar asosida texnologik sxemalarda ishlatiladigan kon uskunalarning majmualari tanlandi va ularning soni umumlashtirilgan 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Texnologik sxemalarda ishlatiladigan kon uskunalari majmuasi va soni

Texnologik sxemalar	Uskuna majmuasi va soni					
1-texnologik sxema	EKG-15	Komatsu HD 785				
	2	13				
2-texnologik sxema	Buldozer	EKG-15	Komatsu HD 785			
	4	2	13			
3-texnologik sxema	Hitachi EX-3600	Belaz 7513				
	2	8				
4-texnologik sxema	Buldozer	Hitachi EX-3600	Belaz 7513			
	4	2	8			
5-texnologik sxema	CAT-992K	Komatsu HD 785				
	3	14				
6-texnologik sxema	Buldozer	CAT-992K	Komatsu HD 785			
	5	3	14			
7-texnologik sxema	CAT-992K	Mobil plastinkali ta'minlagich	Ko'chma o'ziyurar qayta yuklagich	Ko'chma kovjoy konveyeri	Magistral konveyer	
	4	2	16	2	3	
8-texnologik sxema	Buldozer	CAT-992K	Mobil plastinkali ta'minlagich	Ko'chma o'ziyurar qayta yuklagich	Ko'chma kovjoy konveyeri	Magistral konveyer
	5	4	2	16	2	3

Dissertatsiyaning «NKMK AJning uyumlab ishqorlangan texnogen hosilalarni qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalarini asoslash va ishlab chiqish» deb nomlangan uchinchi bobida, uyumlab ishqorlangan texnogen konning xomashyo bazasi va ma'dandagi oltinning o'rtacha tarkibi asoslangan. Bir vaqtning o'zida bir necha yaruslarni birgalikda qazib olish texnologik sxemalarini ishlab chiqish uchun kon massasining hajmini va oltinning o'rtacha miqdorini aniqlash hamda hisoblash uslubi taklif etilgan. Har bir yarusning hajmi o'zgarishi bilan bir vaqtning o'zida bir necha yarus qazib olinganda mineral xomashyoning o'rtacha miqdori o'zgaradi. Uyumlab ishqorlangan shtabelning bir necha yaruslarini birgalikda qazib olishda o'rtacha miqdor quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$C_{o'r} = \frac{V_1 \cdot \rho_1 \cdot C_1 + V_2 \cdot \rho_2 \cdot C_2 + \dots + V_n \cdot \rho_n \cdot C_n}{V_1 \cdot \rho_1 + V_2 \cdot \rho_2 + \dots + V_n \cdot \rho_n}, \quad (1)$$

bu yerda V_1, V_2, V_n – uyumlab ishqorlangan shtabelni birinchi, ikkinchi va boshqa yaruslarining hajmlari, m^3 ; ρ_1, ρ_2, ρ_n – uyumlab ishqorlangan shtabelni birinchi, ikkinchi va boshqa yaruslarining hajmiy og'irligi, t/m^3 ; C_1, C_2, C_n – uyumlab ishqorlangan shtabelni birinchi, ikkinchi va boshqa yaruslarining o'rtacha miqdori, g/t .


Hisoblash natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Yaruslar bo'yicha va bir vaqtning o'zida bir necha yaruslarni birgalikda qazib olishda kon massasining hajmi va oltinning o'rtacha miqdori

Yaruslar	Konus shaklining hajmi, m^3	Uchburchak shaklining hajmi, m^3	Kvadrat shaklining hajmi, m^3	Yarus hajmi, m^3	Ma'dandagi oltinning yaruslar bo'yicha o'rtacha miqdori, g/t
6	1843,23	185979,90	12381836,2	12569659	0,37
5	1843,23	196463,56	14573101,6	14771408	0,45
4	1843,23	207013,57	16912901,5	17121758	0,53
3	1843,23	217563,57	19378701,5	19598108	0,6
2	1843,23	228113,58	21970501,5	22200458	0,69
1	1843,23	238663,58	24688301,5	24928808	0,77
5,6	3686,46	382443,46	26954937,8	27341068	0,41
3,4	3686,46	424577,14	36291603,1	36719867	0,57
1,2	3686,46	466777,16	46658803	47129267	0,73
4,5,6	5529,69	589457,03	43867839,3	44462826	0,46
1,2,3	5529,69	684340,73	66037504,5	66727375	0,69
3,4,5,6	7372,92	807020,6	63246540,8	64060934	0,5
1,2	3686,5	466777,16	46658803	47129267	0,73
2,3,4,5,6	9216,15	1035134,18	85217042,3	86261393	0,55
1	1843,23	238663,58	24688301,5	24928808	0,77
1,2,3,4,5,6	11059,38	1273797,76	109905344	111190201	0,6

Uyumlab ishqorlangan texnogen hosilalarni qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalari ishlab chiqilgan. Birinchi texnologiya, texnologik sxemani ishlab chiqishga asoslangan bo'lib, shtabelning yon tomonida qiya magistral konveyerlarni joylashtirgan holda shtabelning yuqori yaruslardan boshlab, yani yuqoridan pastgacha buldozerlarsiz yuklagichlar yordamida qazib olinishi 5-rasmda keltirilgan.




5-rasm. Tavsia etilgan variant bo'yicha GMZ - 7 zavodining xomashyo kompleksiga dastlabki kirishning texnologik sxemasi

Taklif etilayotgan qazib olish texnologik sxemasining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:


1. Buldozerni texnologik sxemadan chiqarib tashlash orqali kapital xarajatlarni tejash;
2. Buldozerning ishlashidan kechish orqali GMZ-7 zavodiga ma'danni tashish tannarxlarini kamaytirish;
3. Har 10 m da yuqoridan pastgacha shtabelni yarusli qazib olish orqali qatlamlar orasidagi begona materiallar va drenaj tizimlarini olib tashlash ishlarining soddalashtirish imkoniyati tug'iladi;
4. Tekislangan maydonga parallel qayta joylashtirish orqali yangi uyumlab ishqorlash shtabelini hosil qilish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu texnologik sxemaning kamchiligi shundaki, dastlabki bosqichda iste'molchiga tarkibi 0,37 g/t ga teng bo'lgan oxirgi bosqichda 0,77 g/t ga yetadigan ma'dan yuboriladi.

Ikkinchi texnologiya, texnologik sxemalarni ishlab chiqishga asoslangan bo'lib, uyumlab ishqorlangan shtabelni butun balandligi bo'yicha yuklagichlar va rotorli ekskavator yordamida qazib olinishi 6 va 7-rasmlarda keltirilgan.



6-rasm. Yuklagichlar yordamida uyumlab ishqorlangan shtabelni qazib olish sxemasi




7-rasm. ZER-500-2 rotorli ekskavator yordamida uyumlab ishqorlangan shtabelni qazib olish sxemasi

Ushbu texnologik sxemani tahlil qilib, chiqimli ekspluatatsion xarajatlarning katta qismi buldozerlar ishlashiga to'g'ri kelayotgani aniqlandi, buning sababi 60 m balandlikda bo'lgan texnogen resurslarni 150 m masofagacha surish tufayli ushbu uskunaning samaradorlik koeffitsienti past bo'lishi va dizel yoqilg'isining yuqori iste'moli bilan izohlanadi.


Buldozerlar yordamida texnogen resurslarni qiya kesish orqali ishchi gorizontga surishda shtabelning balandligi bo'yicha aralashuviga erishiladi. Ishchi gorizontga ko'chirilgan texnogen resurslarni yuklagichlar va rotorli ekskavator yordamida ta'minlagichga yoki qabul qiluvchi bunkerga keyinchalik esa qayta yuklovchi konveyerga yetkazib beriladi. Qayta yuklovchi konveyerlar ma'danni ko'chma kovjoy konveyerlariga, ular esa magistral konveyerga yuklaydi. Lentali ta'minlagich va rotorli ekskavator harakatlanganligi uchun ular va ko'chma kovjoy konveyerlari orasiga qayta yuklovchi konveyerlarni navbatma-navbat o'rnatish zarur. Magistral konveyer ma'danni iste'molchining qabul qiluvchi konveyeriga tashlaydi.

Shu bilan birga, iste'molchiga yuboriladigan ma'dandagi oltinning o'rtacha tarkibi 0,6 g/t ga yetkaziladi.

Uchinchi texnologiya shtabelni ikki yarusga bo'lishga asoslangan va ikkita texnologik sxema ishlab chiqilgan. Birinchisi, uyumlab ishqorlangan ikki yarusda xam yuklagichlardan foydalanishni, ikkinchisi esa yuqoridagi yarusda yuklagichlardan va pastki yarusda rotorli ekskavatoridan foydalanishni o'z ichiga oladi (8 va 9-rasmlar).




8-rasm. Ikki yarusga bo'lingan uyumlab ishqorlangan shtabelni yuklagichlar yordamida qazib olishning texnologik sxemasi




9-rasm. Ikki yarusga bo'lingan uyumlab ishqorlangan shtabelni yuklagichlar va rotorli ekskavator yordamida qazib olishning texnologik sxemasi

Ushbu texnologik sxemalar yordamida iste'molchiga yetkazib beriladigan barqaror ma'dan tarkibi 0,6 g/t ga yetkaziladi, biroq tanlangan texnologik sxemalarni iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha asoslash talab etiladi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarni asoslash uchun uyumlab ishqorlangan shtabelni balandligi bo'yicha qiya kesib va ikki yarusga bo'lib qazib olishda buldozer xavfsiz ishlashi uchun maqbul burchaklarni, kon massasining surish masofasini, kon-kapital ishlarining yuzasini va hajmini aniqlash uchun grafoanalitik usul ishlab chiqildi (10 va 11-raslarda keltirilgan).



10-rasm. Shtabelni balandligi bo'yicha qazib olishda kon-kapital ishlarining hajmini aniqlash sxemasi



11-rasm. Shtabelni ikki yarusga bo'lib qazib olishda kon-kapital ishlarining hajmini aniqlash sxemasi

Shtabelning buldozer bilan kesilgan qismining yuzasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = \frac{a+b}{2} \cdot h, \text{ m}^2; \quad (2)$$

bu yerda, a va b kesilayotgan shtabel qismining pastki va yuqori o'lchamlari, m; h - kesilayotgan shtabel qismining balandligi, m.

Buldozer yordamida kesilayotgan shtabel qismining kon-kapital ishlari yuzasi quyidagiga teng:

$$S_{kki} = S_{xav} - S_{mav}, \text{ m}^2. \quad (3)$$

Shtabelning yuqori brovkasidan kesilgan yuqori brovkagacha bo'lgan masofa quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$m = H \cdot \left(\frac{1}{tg\beta} - \frac{1}{tg\alpha} \right), \text{ m}, \quad (4)$$


bu yerda, H -kesilgan shtabelning balandligi, m; α va β shtabelning mavjud va xavfsiz qiyalik burchaklari, grad.

Shtabelning to'liq balandligi bo'yicha buldozer bilan kesishda kon-kapital ishlarining hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:


$$V = \frac{m}{2} \cdot S_{kki}, m^3. \quad (5)$$

Microsoft Excel dasturidan foydalangan holda ishlab chiqilgan grafoanalitik usul asosida buldozerning xavfsiz ishlashi uchun optimal burchaklar, ma'danni surish masofasi, kon-kapital ishlarining yuzasi va hajmi aniqlandi. Shuningdek uyumlab ishqorlangan shtabelni to'liq balandligi bo'yicha va ikki yarusga bo'lib qazib olishda buldozerlar yordamida kesishning xavfsiz qiyalik burchagiga bog'liqlik grafiklari olindi (12-15 rasmlar).


Amalga oshirilgan hisob-kitoblar asosida olingan grafiklar shuni ko'rsatdiki, texnologik sxemalarda qiyalikni kesish burchagi pasayishi bilan surish masofasi va kon-kapital ishlarining hajmi oshadi.




12-rasm. Shtabelni to'liq balandligi bo'yicha va ikki yarusga bo'lib qazib olishda xavfsiz qiya kesish burchaklarining, ma'danni surish masofasiga bog'liqlik grafigi



13-rasm. Shtabelni ikki yarusga bo'lib yuklagichlar va rotorli ekskavator bilan qazib olishda xavfsiz kesish burchaklarining, ma'danni surish masofasiga bog'liqlik grafigi



14-rasm. Butun balandlik bo'yicha qazib olishda xavfsiz kesish burchaklarining, kon-kapital ishlari hajmiga bog'liqlik grafigi



15-rasm. Ikki yarusga bo'lib qazib olishda xavfsiz kesish burchaklarining, kon-kapital ishlari hajmiga bog'liqlik grafigi

Optimal kesish burchagi 25° hisoblanib, ishning xavfsizligi ta'minlanishiga, ma'danni minimal masofaga surilishiga va kon-kapital ishlarining hajmini kamayishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning «**NKMK AJning uyumlab ishqorlangan shtabelni qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalarining unumdorligi va iqtisodiy samaradorligini baholash**» deb nomlangan to'rtinchi bobida, uyumlab ishqorlangan shtabelni qazib olish uchun ishlab chiqilgan texnologik sxemalarda kon uskunalarning majmuasi va unumdorligi aniqlangan. Ishlab chiqilgan texnologik sxemalarning barcha variantlari uchun ishlatiladigan kon uskunalarning majmuasi va ularning sonini umumlashtirilgan 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Texnologik sxemalar, kon uskunalarning majmuasi va soni

Texnologik sxemalar	Kon uskunalarning majmuasi va ularning soni			
Shtabelni yuqori yaruslaridan boshlab, yuqoridan pastgacha, yuklagichlar bilan qazib olish	Yuklagich	O'ziyurar lentali ta'minlagich	Qayta yuklovchi konveyer	Qiya konveyer
	4	3	24	3
	Ko'chma kovjoy konveyeri	Magistral konveyer		
	1	1		
Shtabelni butun balandligi bo'yicha yuklagichlar va rotorli ekskavator bilan qazib olish	Buldozer	Yuklagich	Rotorli ekskavator	O'ziyurar lentali ta'minlagich
	5	3	1	1
	Qayta yuklovchi konveyer	Ko'chma kovjoy konveyeri	Magistral konveyer	
	24	1	1	
Shtabelni ikki yarusga bo'lib yuklagichlar bilan qazib olish	Buldozer	Yuklagich	O'ziyurar lentali ta'minlagich	Qayta yuklovchi konveyer
	3	4	2	16
	Qiya konveyer	Ko'chma kovjoy konveyeri	Magistral konveyer	
	1	2	1	
Shtabelni ikki yarusga bo'lib yuklagichlar va rotorli ekskavator bilan qazib olish	Buldozer	Yuklagich	Rotorli ekskavator	O'ziyurar lentali ta'minlagich
	2	3	1	1
	Qayta yuklovchi konveyer	Qiya konveyer	Ko'chma kovjoy konveyeri	Magistral konveyer
	24	1	2	1

«Navoiy kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyatining uyumlab ishqorlangan shtabelni qazib olish uchun ishlab chiqilgan texnologik sxemalarning iqtisodiy samaradorligi baholandi.

Uyumlab ishqorlangan shtabelni qazib olishning maqbul texnologik sxemasini aniqlash uchun qazib-yuklovchi, tashuvchi va yordamchi uskunalarni sotib olish uchun mahalliy xarajatlar smetasini tuzish orqali tanlangan kon uskunalarning majmualari uchun kapital xarajatlarni hisoblash amalga oshirildi. Ekspluatatsion xarajatlar qazib-yuklovchi, tashuvchi va yordamchi uskunalardan foydalanish rejasi asosida rejalashtirildi. Keltirilgan xarajatlar taklif etilayotgan texnologiyalar va texnologik sxemalar bo'yicha ekspluatatsion xarajatlar yig'indisini va kapital xarajatlarning bir qismini aks ettiradi.

Hisob-kitoblar Microsoft Excel kompyuter dasturi orqali ma'lum uslub yordamida amalga oshirilgan va hisoblash natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar

Nomlanishi	O'lchov birligi	1-variant Shtabelni yuqori yaruslaridan boshlab, yuqoridan pastgacha, yuklagichlar bilan qazib olish	2-variant Shtabelni butun balandligi bo'yicha yuklagichlar va rotorli ekskavator bilan qazib olish	3-variant Shtabelni ikki yarusga bo'lib yuklagichlar bilan qazib olish	4-variant Shtabelni ikki yarusga bo'lib yuklagichlar va rotorli ekskavator bilan qazib olish
Yillik unumdorlik	ming t	15 000	15 000	15 000	15 000
Jami kapital xarajatlar	ming doll.	22 542	24 158	23 668	21 968
Jami ekspluatatsion xarajatlar	ming doll.	6 504	7 090	6 908	6 445
Keltirilgan xarajatlar	ming doll.	9 885	10 713	10 458	9 246

O'tkazilgan iqtisodiy hisob-kitoblar natijasida uyumlab ishqorlangan shtabelni qazib olishning to'rtta varianti bo'yicha kapital va ekspluatatsion xarajatlar aniqlandi. Shunday qilib, uyumlab ishqorlangan shtabelni ikki yarusga bo'lib yuklagichlar va rotorli ekskavator bilan qazib olish maqsadga muvofiq ekanligi asoslandi.

XULOSA

«Kon ishlari va uyumlab ishqorlashning texnogen hosilalarini qazib olish texnologiyasi va texnologik sxemalarini asoslash» mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Kon sanoati chiqindilari balansdan tashqari rudalar, qoplovchi tog' jinslar, gidrometallurgiya shlaklari va chiqindilari, boyitish chiqindilari va uyumlab ishqorlangan texnogen chiqindilar O'zbekiston tog'-kon va qayta ishlash sanoatlarini rivojlantirishning istiqbolli xomashyosi sifatida xizmat qilishi mumkin.

2. Uyumlab ishqorlashning dastlabki chiqindilarida o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili natijasida tarkibi, elementlarning to'liq spektri, mineral tuzilishi, oltinni mavjud shakllari aniqlangan.

3. Yer yuzasidagi texnogen konlarning takomillashtirilgan tarkibiy turlanishi asoslangan, u yetarlicha to'liq bo'lmasada, ammo qazib olish texnologiyasini, texnologik sxemalarni, kon transportini va qazish uskunalarini tanlash uchun zarur va yetarli turlanish hisoblanadi.

4. Ko'rib chiqilgan ma'dan-tog' jinsli texnogen konlarning turlari uchun tavsiya etilgan tarkibiy turlanishga muvofiq, ushbu dissertatsiya ishida «NKMK» AJning ma'dan omborlarini qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalari ishlab chiqilgan.

5. Ishlab chiqilgan texnologik sxemalar asosida tanlab va yalpi qazish ishlari uchun «NKMK» AJning ma'dan-tog' jinsli texnogen hosilalarini qazib olish texnologiyalari ishlab chiqilgan.

6. Ma'dan-tog' jinsli texnogen konlarni nim pog'onalar bilan va to'liq balandligi bo'yicha qazib olish uchun ishlab chiqilgan texnologiyalar va texnologik sxemalarning unumdorligini hisoblash metodikasi ishlab chiqilgan.

7. Uyumlab ishqorlangan shtabelni yuqori yarusdan boshlab yuqoridan pastgacha, butun balandligi bo'yicha va ikki yarusga bo'lib buldozerlar, yuklagichlar, rotorli ekskavator va konveyer transportlarini qo'llagan holda qazib olish texnologiyalari va texnologik sxemalari ishlab chiqilgan.

8. Uyumlab ishqorlangan shtabelni butun balandligi bo'yicha va ikki yarusga bo'lib qazib olishda buldozerning xavfsiz kesish burchagini, ma'danni surish masofasini, kon-kapital ishlarining yuzasi va hajmini aniqlash uchun grafoanalitik usul ishlab chiqilgan.

9. Tanlangan kon ishlari hajmini bajarish uchun ishlab chiqilgan to'rtta texnologik sxemaning unumdorligi, qo'llanilgan kon uskunalarning majmualari va soni asoslandi, hamda texnologik sxemalarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligini asoslash uchun Microsoft Excel dasturida hisob-kitoblar amalga oshirildi.

10. O'tkazilgan iqtisodiy hisoblashlar bilan, uyumlab ishqorlangan shtabelni ikki yarusga bo'lib yuklagichlar va rotorli ekskavator yordamida qazib olishning maqsadga muvofiqligi asoslandi. Ushbu texnologiyada kapital va ekspluatatsion xarajatlar bo'yicha tejamkorlik amaldagi texnologiyaga nisbatan 2 835 000 AQSH dollarini tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.17/04.06.2021.Т.06.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАВОЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАВОЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ГОРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

АБДУРАШИДОВ ШАХРИЁР МАШРАБЖОН УГЛИ

**ОБОСНОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ СХЕМ
ОТРАБОТКИ ТЕХНОГЕННЫХ ОБРАЗОВАНИЙ ГОРНЫХ
РАБОТ И КУЧНОГО ВЫЩЕЛАЧИВАНИЯ**

04.00.10 – Геотехнология (открытая, подземная и строительная)

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Навои – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.2.PhD/Т2625.

Диссертация выполнена в Навоийском государственном горно-технологическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён в веб-странице Научного совета (www.ndki.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель: **Тухташев Алишер Баходирович**
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Заиров Шерзод Шарипович**
доктор технических наук, профессор

Очилов Шухратулла Атоевич
доктор философии (PhD) по техническим наукам,
доцент

Ведущая организация: **Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится 27 декабря 2024 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.17/04.06.2021.Т.06.02. Адрес: 210100 г. Навои, ул. Галаба шох, 76в. Зал заседаний Навоийского государственного горно-технологического университета. Тел.: (79) 223-04-40; факс: (79) 223-49-66. E-mail: info@nsmtu.uz, nsmi@gmail.com

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Навоийского государственного горно-технологического университета (зарегистрирован за №178). Адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба шох, 76в. Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66.

Автореферат диссертации разослан «14» декабря 2024 г.

(реестр протокола рассылки № 158 от «14» декабря 2024 г.).



И.Т. Мислибаев

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

Р.У. Джураев

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

Н.А. Абдуазизов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире имеется колоссальные объёмы отходов горного, обогащенного производства и кучного выщелачивания в виде минерального сырья с низкими содержаниями полезных ископаемых. Часть таких отходов, заскладированных в разных рода отвалах, уже в настоящее время могут считаться полноценными техногенными месторождениями. Объёмы таких отходов из года в год накапливаются значительными темпами, которые в данный момент являются актуальными для привлечения их к переработке. Освоение техногенных месторождений обеспечивает достижение сразу двух глобальных целей: во-первых, получение недорогого источника дополнительного минерального сырья, а во-вторых, использование накопленных промышленных отходов будет способствовать снижению их отрицательного воздействия на окружающую среду и в настоящее время их решение приобретает все большее значение.

В мире ведутся научные исследования по разработке экономически эффективной технологий и технологических схем отработки хвостохранилищ, обеспечению повышения качества добываемой рудной массы, что предполагает выборочную добычу руды, а также внедрению новых технологий и технологических схем за счёт определения оптимальных параметров. В связи с этим особое внимание уделяется на перспективные направления освоения техногенных месторождений, а также требует создание технологии и технологических схем их отработки для повторного обогащения и извлечения ценных компонентов в перерабатывающих производствах.

В Республике выполняется ряд научно-практических работ по разработке оптимальных технологических схем и их параметров с применением бульдозеров, погрузчиков и автомобильного транспорта, созданию эффективной технологии добычных работ в комплексе со средствами механизации при открытой разработке месторождений. В Указе Президента Республики Узбекистан¹ определены важные задачи по «повышению эффективности использования и воспроизводства минерально-сырьевой базы с целью наращивания мощностей горнодобывающих и перерабатывающих предприятий...». В связи с этим, одним из направлений получения дополнительного минерального сырья из техногенных образований кучного выщелачивания и создания технологии и технологических схем их отработки является актуальной научной и практической задачей горного производства.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 г. «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», №УП-4707 от 4 марта 2015 г. «О программе

¹ Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28-января 2022 г. «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

